

TOG'AY MUROD IJODIDA OT TASVIRI

Boliqulova Mehribon Abdumutal qizi,

Samarqand davlat chet tillari instituti Sharq tillari fakulteti talabasi

Pardayeva Iroda Mamayunusovna,

ilmiy rahbar, Samarqand davlat chet tillari instituti dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Tog'ay Murodning "Ot kishnagan oqshom" asaridagi ot obrazining badiiy-falsafiy talqini tahlil qilinadi. Adib ijodida ot timsoli nafaqat bosh mavzu sifatida, balki milliy ong, tarixiy xotira va insoniyat ruhiyatining chuqur qatlamlarini yorituvchi ramziy vosita darajasiga ko'tarilgan. Ayniqsa, Ziyodulla chavandoz obrazidagi hayotiy kurashlar, or-nomus, erkinlik va g'urur ot timsoli orqali badiylashgan holda ifodalanadi. Shuningdek, adibning til uslubi, voqelikni timsollar orqali ochib berish mahorati ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar. Ot obrazi, milliy ruh, erkinlik, badiiyat, "Ot kishnagan oqshom" asari, xalq og'zaki ijodi, "Alpomish" dostoni, chavandoz, ramziy timsollar, milliy ong, tahlil va talqin.

TOĖAY MURAD'IN ESERLERINDE AT TASVIRI

Bolikulova Mehriban Abdumutal kızı,

Semer kand devlet yabancı diller enstitüsü DoĖu dilleri fakóltesi öĖrencisi

Pardayeva Iroda Mamayunusovna,

bilimsel danışman, Semerkand devlet yabancı diller enstitüsü doçenti

Özet. Bu makalede Togay Murod'un "Kışkanan Atın Gecesi" adlı eserindeki at imgesinin sanatsal ve felsefi yorumu incelenmektedir. Yazarın eserinde at imgesi yalnızca ana tema olarak deĖil, aynı zamanda ulusal bilincin, tarihsel belleĖin ve insan ruhunun derin katmanlarını aydınlatan sembolik bir araç olarak da öne çıkar. Özellikle binici Ziyodulla'nın yaşam mücadelesi, onuru, özgürlüĖü ve gururu at sembolü aracılığıyla sanatsal olarak ifade edilmiştir. Yazarın dilsel üslubu ve gerçeĖi semboller aracılığıyla ortaya koyma becerisi de bilimsel ve kuramsal bir temelde analiz edilmektedir.

Anahtar kelimeler. At imgesi, milli ruh, özgürlük, sanat, "Kışkanç Atın Gecesi" eseri, halk sanatı, "Alpomish" destanı, binici, sembolik imgeler, milli bilinç, analiz ve yorum.

ОБРАЗ ЛОШАДИ В ТВОРЧЕСТВЕ ТОГАЯ МУРАДА

Боликулову Мехрибон Абдумутал кизи,

Студентка факультета восточных языков Самаркандского

государственного института иностранных языков

Пардаева Ирода Мамаюнусовна,

*научный руководитель, доцент Самаркандского государственного института
иностранн ых языков*

Аннотация. В статье анализируется художественно-философская интерпретация образа коня в произведении Тогая Мурода «Ночь ржущего коня». В творчестве писателя образ коня возведен не только в ранг основной темы, но и в ранг символического средства, освещающего глубинные пласты национального сознания, исторической памяти, психики человека. В частности, жизненные трудности, честь, свобода и гордость всадника Зиёдуллы художественно выражены через символ коня. На научно-теоретической основе

анализируются также языковой стиль писателя и его умение раскрывать реальность через символы.

Ключевые слова. Образ коня, национальный дух, свобода, искусство, произведение «Ночь ржущего коня», народное творчество, эпическая поэма «Алпомиш», всадник, символические образы, национальное сознание, анализ и интерпретация.

THE IMAGE OF A HORSE IN THE WORK OF TOGAY MURAD

Bolikulova Mekhribon Abdumutal kyzy,
Student of the faculty of Oriental languages of the
Samarkand state institute of foreign languages
Pardayeva Iroda Mamayunusovna,
scientific advisor, associate professor of the
Samarkand state institute of foreign languages

Abstract. This article analyzes the artistic and philosophical interpretation of the image of the horse in Togay Murod's work "The Night of the Horse's Neighing". In the writer's work, the image of the horse is elevated not only as the main theme, but also to the level of a symbolic tool that illuminates the deep layers of national consciousness, historical memory and the human psyche. In particular, the life struggles, honor, freedom and pride in the image of the rider Ziyodulla are expressed artistically through the image of the horse. Also, the writer's language style, the skill of revealing reality through symbols are analyzed on a scientific and theoretical basis.

Keywords. Image of the horse, national spirit, freedom, art, the work "The Night of the Horse's Neighing", folk oral work, "Alpomish" epic, rider, symbols, national consciousness, analysis and interpretation.

O'zbek adabiyotida hayvonot olami timsollar orqali insoniyat hayotining chuqur qatlamlarini ochib berish qadimdan mavjud bo'lgan an'anadir. Ayniqsa, ot obrazi xalqimizning tarixiy xotirasi, milliy g'ururi va erkinlikka intilishining ajralmas timsoli sifatida ko'p bora adabiy ifodasini topgan. Tog'ay Murod – XX asr o'zbek adabiyotining o'ziga xos uslub va mazmuniy qatlamlarga ega yorqin vakillaridan biri bo'lib, uning asarlarida milliy ruh, dehqon tafakkuri va falsafiy teranlik ustuvorlik qiladi. Ayniqsa, "Ot kishnagan oqshom" qissasi badiiy-estetik jihatdan murakkab tuzilmaga ega bo'lib, undagi ot obrazi nafaqat syujet markazining tarkibiy elementi, balki asosiy g'oya va ramziy qatlamni belgilovchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. "Ot kishnagan oqshom" qissasida halollik va mardlik tarannum etuvchi asarlardan biri bo'ldi. Qissa qahramoni Ziyodulla kal elning mashhur chavondozi. Chavondozlar orasida ham o'zining halolligi bilan tanilgan.

U g'irromlik ro'y bersa to'g'risini aytadi. To'g'rilik Ziyodulla kalning qonida bor. Ziyodulla bir to'yda o'yining chilvar solgan chavondozlarni ko'rib nafratlanadi!

"Birodorlar, chavondozlar nimaga etagini qoqib ketayapti? Adolatga!

Nimaga tupurib ketayapti? Adolatga!

Kimdan aroزالab ketayapti? Adolatdan!

Bir to'yda nomard, iymonsizga achchiq qilib, adolatni o'tga tashlab ketayapti!"

Lekin Ziyodulla adolat osmonda deguvchilarga qarata shunday deydi:

"Yo'q birodorlar adolat erda! Oyoqlarimiz ostida! Adolat tuproqqa qorashib yotibdi! Adolatni kam buldayin xor qilayapti? Biz o'zimiz"

Qissada chavandoz va hamqishloqlarining adolat yo'lidagi kurashlari o'zining g'oyat ishonarli tasvirini topgan. Masalan, bir yili qishloqqa otlarni go'shtga topshirish to'g'risida buyruq keladi. Tabiiyki buyruq qishloq ahlini sergak torttiradi. Lekin hech kim yurak yutib buyruqqa qarshi borolmaydi. Shunda Ziyodullaga o'xshagan chavondozlar yani adolatni izlashga to'shadilar.

Bunday noxush xabarni eshitgan Ziyodulla chavandoz shunday deydi: "Kuntug'mish»ni go'shtga topshirib bo'ladimi? "Alpomish"ni go'sht qilib bo'ladimi?"

Albatta, Ziyodulla chavandoz aytganidek, adolat haqida ko'p gapirish mumkin. Ammo bu yo'lda kurashishi esa har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. Ziyodulla ham bu yo'ldan qaytadiganlardan emas. O'z e'tiqodida sobit inson. Chavandoz sodda va samimiy, ayni paytda, cho'rtkesar inson. Bu fazilatlari unga ko'p tashvishlar keltiradi. "Ot kishnagan oqshom" muallifining ijodida folklorda ko'p uchraydigan qahramon va obrazlarga duch kelamiz. Ziyodulla kal mana shunday qahramonlardan biri. Kal timsoli xalq og'zaki ijodidagi ko'pgina janrlar latifa, doston, ertaklarda uchraydi. Ertaklardagi kal go'zal malikaga oshiq bo'ladi va har qanday to'siqni engib o'tab uylanadi. Ziyodulla kalning qishloqning eng suluv qizi Momosuluvga uylanishi ham xuddi shu an'anani eslatadi. Folklorda qahramonning suyuqlisini ko'pincha tushida, ko'zguda, uzuk ko'zida yoki bir holatda ko'rib qolib unga oshiq bo'lib qolish holatlari uchraydi. Bu jarayon Ziyodulla kalning ham tushida ro'y beradi. Bu obrazdan folklor qahromonlariga xos favqulodda holatlarni toppish mumkin. Ammo yana bir obraz borki biz uning tahlili misolida T.Murodning xalq og'zaki ijodi namunalariga ko'p bor tayanganligiga yana bir bor iqrar bo'lamiz bu - ot obrazi. Folklorda ot tasvirlanayotganda ko'pincha uning zoti afzalligi ta'kidlab o'tiladi. Masalan:

Asli chambilning otisan!

Asli turkman xonazoti!

"Ot kishnagan oqshom"da ham shu an'anani uchratish mumkin.

"Birodorlar buning Surxonda mana bunday gap bor: ot olsang Oboqlidan ol, ayol olsang Irg'olidan ol. Buning mag'zi shuki ot deganlari-dev! Ot bepoyonlikka deydi. Ot masofi nimaligini bilmaydi, xudud nimaligini bilmaydi. Ot qahraton qishda dasht-biyotonlarda chopib o'sadi. Ana shunda dirkillagan ot bo'ladi. Uchqur keladi! Bedav bo'ladi!..

Birodarlar, bo'z ot qanday bo'ladi? Surpday oppoq bo'ladi! Bordi-yu ajdodida bo'lsa to'qqizga to'lganda tarlop bo'ladi. Tarlop xol-xol ot! Tarlop- otlar sarasi. Birodarlar otning yuzdan biri yaxshi bo'ladi. Tarlop otning yuzdan biri yomon bo'ladi. Birodorlar ot tanimasang tarlop ol!"

Dostonlarda otlarning bahosi sinchilar tilidan ta'riflanadi. Masalan, "Alpomish" dostonida Ko'kaldoshning sinchisi Boychiborni qarichlab ko'rib bahasini aytadi, ta'rifini keltiradi. Ziyodulla kalning oti ko'pkariga ro'yxushlik bermay turganida uni sinchiga ko'rsatsa, u darhol otni o'ziga sotishini so'rab qoladi. Ko'pkarida otning faqat g'olib kelayotganini kuzata turib: "Endi menga qarang el chavandozi, otga dam bering, bo'lmasa ko'ziktirib qo'yasiz deydi. Tog'ay Murodning ot obrazini yaratishda folklordan unumli foydalanganligi qahramon tilidan aytilgan: "Tarlop ot emas, Jumbatbulbul kuylagan "Kuntug'mish" Fozil Yo'ldosh kuylagan "Alpomish" so'zlaridan ham anglashilib turibdi.

Adibning Qoplon va Oymoma kati obrazlarida ham folklor qahramonlari, insonlar Alpomish va Barchinoy kabilar tasviriga monandlik mavjud. Buni birgina Oymomi tasviri berilgan jumlarlar orqali ham bilib olishimiz mumkin:

"Suluv yuzlarini oppoq desak, bizning haqqimiz ketadi.

Qorachadan kelgan desak qizning haqqi ketadi.

Bug'doyrang bo'ldi. Barchin yuzli bo'ldi.

Shu bilan birga yozuvchining uslubi ham xalq ijodi kabi ravon. Shunday qilib T.Murod folklor namunalaridan ijodiy foydalanish orqali obrazlariga chinakam milliy xususiyatlarini, koloritni bera olganligini ko'ramiz. Har bir jamiyat, har bir davrning o'ziga xos yangi qahramonlari bo'ladi. Hayot konkret tarixiy sharoit taqozosi bilan o'z zamonasi ilg'or kishisining muayyan tiplarini kurash maydoniga olib chiqadi. Shu boisdan ham ularning intilishida, kurashida va qismatida davrning butun murakkabligi aks etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. To'gay Murod. Ot kishnagan oqshom. – Toshkent. 1994. –B. 126.
2. Murod, T. Oydinda yurgan odamlar. – Toshkent: Sharq, 2001.
3. Normatov U. Umiddaxsh tamoyillar. – Toshkent. 2000.

4. Sharafiddinov O. Adabiyot, tanqid va yangi tafakkur. – Toshkent: "O'zbek adabiyoti va san'ati". 2001-yil. 19-oktabr.
5. Rahimjonov N. Bugunning qahramoni kim? "O'zbek tili va adabiyoti". 2001. 6-son.
6. Karimov N, Nazarov B., Normatov U., Mamajonov S., Sharafiddinov O. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: "O'qituvchi". 1999.